

LOGISTIKA TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

**Turdiyeva Marjona Abdiholiq qizi**

*Termiz Muhandislik Texnologiya Instituti*

*Transport logistika*

**Annatsiya:** *Logistika zanjirning barcha qisimlarida sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga tasiri o'rganildi. Ishlab chiqarishni oshirish xarajatlarini kamaytirish va transport logistikasida ya'ni avto transportlarda yuk tashishni yo'lga qo'yish samarali foydalanish, yuklar olib kirilishi, tranzit sharoitlarini yengillashtirish, u boradagi imkoniyatlarni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Logistika sohasidagi afzalliklar va kamchiliklarni aniqlash hamda samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berildi*

**Kalit so'zlar:** *Logistika, transport infratuzilmasi, transport tranzit, kommunikatsiya, konseptual, terminologiya, ratsionalizatsiya, irigatsiya, sinxronlashtirish.*

**Kirish.**

Korxonaning logistika tizimi turli elementlarni birlashtiradigan eng murakkab va ayni mexanizmlardan biridir. Ushbu mexanizmlarni uzluksiz ishlashi asosan uning tarkibiy qismlarida har birini aniq ishlashi belgilanadi. Unda ishlatiladigan usul aniqligi o'rganilib logistika sohasi zarurligi vujudga keldi. Hozirgi davrda ishlab chiqarishni jadal o'sishi, turli korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar nomenklaturasini kengayishi omborlarni tashkil etilishi hamda tovarlar aylanmasi o'sishiga tasir qiladi.

Bu esa logistikaga bo'lgan talabni oshiradi. Sanoatni barcha qisimlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, transport vositalarida yuk taraqatish xususan xarid qilish, saqalash, qadoqlash, tovar aylanmasining asosi hisoblanadi. Logistika davlatni iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Uning asosiy vazifasi ma'lum maqsadlarni hal qilish uchun zarur bo'lgan mablag' va xizmatlarni maqsadga muvofiq tayyorlash, foydalanish va boshqarishni tashkil etishdan iborat. Xomashyo va materiallar ishlab chiqarishni tashkil etish logistikada asosiy manba hisoblanadi. Bular birgalikda bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridir. O'zbekiston miqyosida olib qaraydigan bo'lsak transport logistikasi, turizm va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish transport infratuzilmalarini yaxshilash bo'yicha mamlakatimizda ischil siyosiy o'zgarishlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT bosh assambleyasini 75-sessiyasidagi nutqida "O'zbekiston barqaror iqtisodiyotning eng muhim garovi, raqobat bardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi xalqaro bozorlarni topish, eksportni ko'paytirish hamda logistika salohiyatidan to'liq foydalanish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surdi. Logistikaning asosiy salohiyati materiallar, ma'lumotlar, energiya va moliya oqimlarini boshqarishni nazoratda tutish yotadi.

O‘zbekiston respublikasi sanoati va savdosida to‘plangan muammolar ularni hal qilishda tizimli kompleks yondashuvlarni talab qiladi. Tizimli yondashuv obyektlarni tizim sifatida ko‘rib chiqish va obyektlarda kuzatilishi qiyin bo‘lgan xususiyat va munosabatlarni o‘rganish . Natijada ishlab chiqarish muayyan tartiblashgan va maxsulotlarga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlashga qaratiladi .

Logistikaning global maqsadi kengaytirish, bunga ishlab chiqarish boshqichida jarayonlarni sinxronlashtirish hisobiga moddiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, o‘zini o‘zi boshqarish hisobiga biron bir mahsulotga bo‘lgan talabga muvofiq ishlaydi.

Logistikaning tashkiliy yo‘nalishi funktsional soha bo‘lib moddiy oqimlarining harakatini olib boradi va ta‘minot hamda sotuvini taminlaydi. Zaxiralar ishlab chiqarish muomala va iste‘mol orasida qolgan bufer ro‘lini o‘ynaydi. Ular bevosita ishlab chiqaruvchida jamlangan . Ishlab chiqarish va logistika qanchalik tizimli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa rivojlanish ham kutilganidek amalga oshadi. Bundan kelib chiqadiki mintaqamizning iqtisodiy transport sohasiga chuqur irigatsiyani taminlash lozim.

Iqtisodiyotning rivojlanishi xomashyo va tayyor mahsulotni logistik yondashuv asosida iste‘molchiga yetkazishdir.

#### **Asosiy qism.**

Logistika inson va moddiy resurslar foydalanish uchun keng imkoniyatni ochib beruvchi muhim ishdir. Bu esa o‘z navbatida milliy ishlab chiqarishga ta‘sir ko‘rsatadi. Logistika boshqaruvi zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy, iqtisodiy, shuningdek qonunchilik taminoti holatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu holat birinchi navbatda avto transport xizmatlari bozoriga omborxonalar xo‘jalik muassasalariga vositachilik tashkilotlaridan transport logistikasini shakllantirishga taluqli bo‘lishi kerak. Shunga qaramay logistika sohasidagi ish ushbu tendensiya bilan chegaralanmaydi . Bu ko‘p qirrali soha , bundan tashqari lohistika ishlari korxonalar tashkilotlarda kadrlar taminoti , savdo faoliyati axborot tizimlarini tashkil etish va boshqarishni o‘z ichiga oladi.

Logistika yondashuvi o‘tkazuvchi tizimining materiallarini , ishlashini va ko‘lab boshqa ko‘rsatgichlarni yaxshilash uchun individual aloqalarni o‘zaro aloqasi kuchayadi va boshqarish yaxshilanadi. Logistika tizimlarning integral sifati ushbu tizimlarning 6ta logistika qaydlari deb jamlangan yakuniy maqsadni amalga oshirish qobiliyatini ifodalaydi.

- Zarur tovar
- Talabga muvofiq sifat
- Zaruriy miqdorda yetkazib berish
- Kelishilgan vaqtda
- Zaruriy joyga
- Minimal xarajatlar bilan.

Logistika faoliyati maqsadi.

Agar bu 6 ta shart bajarilgan bo'lsa ya'ni kerakli miqdorda sifatli mahsulotni o'z vaqtida eng kam xarajat bilan to'g'ri joyga yetkazib berish hisoblanadi.

**Xulosa.**

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotida Logistika yosh yonalishdir . Shuning uchun konseptual qurilma va terminologiya bilan bog'liq ko'plab masalalar bozor munosabatlarning rivojlanishi bilan doimo yangilanib boradi . Logistika butunlay yangi va amalda ma'lum bo'lmagan yo'nalish emas. Rotsionalizatsiy muammosi doim diqqat markazida bo'lgan logistika yangilanishlari birinchi navbatda korxonlarning iqtisodiy amaliyotida ustivorlikni o'zgartirishdan iborat. Ikkinchidan yangilik qayta tiklash jarayonida moddiy qadriyatlar harakati masalalariga har tomonlama kompleks yondashuvdan iborat. Logistika moddiy axborot oqimlari, ishlab chiqarish, boshqarish va marketing bilan bog'liq jarayonlarni muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek iqtisodiy amalyotda kelishuvlardan foydalanish hamda xalqaro logistika sohasida turizm va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish nazarda tutadi. Natijada oqimlarning harakatlanishi ko'pincha logistika zanjir to'g'ridan to'g'ri qarama qarshi maqsadlarga erishiladi. Bu esa logistikaning turli xil munosabatlarni muvozanatlash , optimallashtirish, muvofiqlashtirish funksiyalarni bajarilishini kprsatadi. Logistika ish jarayonida samaraga erishish uchun yaxshi qo'shnihilik aloqalari va kadrlar ta'minotini yaxshilash va axborot kommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida logistika sohasida kam xarajat va iqtisodiy samaradorlikni olib keladi. Xalqaro logistika sohasida tranzit va yuk yetkazib berish va xalqaro yo'llarning infira tuzilmasini yaxshilash katta imkoniyatlarni ochadi. Mulkning turli funksiyalari alohida boshqarishdan uzoqlashishga va ularni integratsiya qilishga imkon beradi. Bu faoliyatning ilmiy natijasiga olib keladi. Butunjahon bozor iqtisodiyotida Logistika yonalishini tutgan o'rni sezilarli darajada oshib bormoqda. Bizning mamlakatimizda jaddalik bilan logistika sohasi rivojlanib borib, uning evaziga infira tuzilma yaxshilanib bormoqda . Natijada aholi turmush darajasini yaxshilanib borishiga olib kelayapti.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Q. Dadaboyev ” Logistika ” 2007\_y iqtisod moliya nashri.
2. J. K. Qulmuhammedov , M.M.Arabjanov ” Logistika asoslari ” Toshkent 2015 ' Fan va texnologiya ' nashriyoti .
3. Samadov G'ffor Allaqulovich ”Logistika ” Toshkent-2020
4. D.M.Umarova , M.A. Buronova ”Logistika ” o'quv qo'llanma Toshkent - 2016
5. Irisbekova Mavluda ” Xalqaro logistik xizmatlar tizimi ” Toshkent - 2019.